ki, mutafakkir merosida insonning kamoloti uning bilish imkoniyati, aqliy faoliyati va o‘zini anglash qobiliyati bilan chambarchas bog‘langan. Aql nazariy bilish vositasi bo‘lish bilan birga, inson faoliyatini ongli ravishda tartibga solishga imkon beruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Nafs masalasi esa insonning jismoniy, hissiy va aqliy jihatlarini bir butun holda anglashga xizmat qiladi. Shu sababli Bahmanyor qarashlaridagi ma’naviy kamolotni bilim, o‘zini anglash, aqliy nazorat va mas’uliyatli xulqning uyg‘unligi sifatida izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, “Kitob at-tahsil”ni o‘zbek tilida ilmiy izohlar bilan o‘rganish, Bahmanyorning inson va aql haqidagi qarashlarini Ibn Sino hamda boshqa peripatetiklar bilan qiyosiy tadqiq etish, shuningdek, uning aql va o‘zini anglash haqidagi g‘oyalaridan falsafiy hamda ma’naviy-ma’rifiy ta’limda manbashunoslik asosida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bahmanyār ibn al-Marzubān. Al-Taḥṣīl / taṣḥīḥ va ta’liq Murtazā Muṭahharī. Tehran, Dānešgāh-e Tehrān, 1970, 896-bet.

(2). Daiber H. Bahmanyār, Kīā // Encyclopaedia Iranica. 1988, vol. III, Fasc. 5, p. 501–503.

(3). Janssens J. Bahmanyār ibn Marzubān: A Faithful Disciple of Ibn Sīnā? Before and After Avicenna / ed. D.C.Reisman. Leiden–Boston, Brill, 2003, p. 177–197.

(4). Sebti M. Intellection, imagination et aperception de soi dans le Livre du résultat (Kitāb al-Taḥṣīl) de Bahmanyār ibn al-Marzūbān. Chôra. 2005–2006, № 3–4, p. 189–210.

(5). Sebti M. The Ontological Link between Body and Soul in Bahmanyār’s Kitāb al-Taḥṣīl // The Muslim World. 2012, vol. 102, № 3–4, p. 525–540.

(6). Taş İ. Ebu’l Hasan Behmenyar ve Felsefesi. Türk-İslam Medeniyeti Akademik Araştırmalar Dergisi. 2012, № 14, p. 37–53.

(7). Malikov T. Bahmanyār’s al-Taḥṣīl: A Study and Translation of Book Two – Metaphysics, PhD Dissertation. Pisa: Scuola Normale Superiore, 2023.

(8). Бахманяр ал-Азербайджани. Ат-тахсил (Познание). Книга первая, пер. с араб., ввод. статья и коммент., А.В.Сагадеева. Баку, “Элм”, 1983.

Tilavova Umida Qahramonovna (Navoiy davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); e-mail: umidatilavova77@gmail.com)

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA SHAXS AVTONOMIYASI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy intellektning jadal rivojlanishi sharoitida shaxs avtonomiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. An’anaviy falsafada avtonomiya shaxsning o‘z xohish-istaklari, qadriyatlari va ongli tanlovi asosida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qilingan bo‘lsa, sun’iy intellekt davrida ushbu tushuncha tamoman yangi mazmun kasb etmoqda. Endilikda inson hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotgan sun’iy intellekt uning fikrlashi, tanlovi va xatti-harakatlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada sun’iy intellekt va shaxs avtonomiyasi o‘rtasidagi munosabat murakkab, shu bilan birga, dialektik aloqadagi tizim sifatida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, shaxs avtonomiyasi, avtonomiya transformatsiyasi, erkinlik, tanlov, raqamli jamiyat.*

Тилавова Умида Кахрамоновна (старший преподаватель кафедры социальных наук Навоийского государственного университета (PhD); E-mail: umidatilavova77@gmail.com)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ АВТОНОМИИ ЛИЧНОСТИ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-философские изменения, связанные с автономией личности в условиях стремительного развития искусственного интеллекта. Если в традиционной философии автономия трактовалась как способность личности самостоятельно принимать решения на основе собственных желаний, ценностей и осознанного выбора, то в эпоху искусственного интеллекта данное понятие приобретает совершенно новое содержание. В настоящее время искусственный интеллект, постепенно становясь неотъемлемой частью человеческой жизни, оказывает прямое и косвенное влияние на мышление, выбор и поведение человека. В статье анализируется взаимосвязь между искусственным интеллектом и индивидуальной автономией как система, характеризующаяся сложными диалектическими связями.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, автономия личности, трансформация автономии, свобода, выбор, цифровое общество.*

Tilavova Umida Qahramonovna (Senior Lecturer, Department of Social Sciences Navoi State University (PhD); E-mail: umidatilavova77@gmail.com)

A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION OF PERSONAL AUTONOMY IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation. *This article examines the socio-philosophical transformations associated with personal autonomy in the context of the rapid development of artificial intelligence. While autonomy has traditionnally been understood in philosophy as an individual's capacity to make independent decisions based on their own desires, values, and conscious choices, the concept has acquired an entirely new meaning in the age of artificial intelligence. As artificial intelligence increasingly becomes an integral part of human life, it exerts both direct and indirect influence on human thinking, decision-making, and behavior. The article examines the relationship between artificial intelligence and individual autonomy, a system characterized by complex, dialectical connections.*

Keywords: *artificial intelligence, personal autonomy, transformation of autonomy, freedom, choice, digital society.*

Kirish. Sun'iy intellekt tizimlari insonlarning ta'lim olishi, mehnat qilishi va qarorlar qabul qilishi kabi muhim jarayonlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bilimning tabiati va bilish jarayonlarining falsafiy oqibatlari bilan bog'liq munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, shaxs avtonomiyasi tushunchasi – insonning o'z hayoti, qarorlari va harakatlarini mustaqil ravishda belgilash qobiliyati – sun'iy intellekt tizimlari bilan chambarchas bog'liq holda tubdan o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Klassik falsafada avtonomiya inson mavjudligining markaziy belgisi, aqlli mavjudotning erkin tanlov qilish huquqi va qobiliyati sifatida talqin etilgan bo'lsa, raqamli jamiyatlarda esa bu tushuncha yangi mazmun kasb etayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Endilikda sun'iy intellektning kundalik hayotga, qaror qabul qilish jarayonlariga, ta'lim, tibbiyot, mehnat munosabatlari va shaxsiy tanlovlarga faol aralashuvi insonning mustaqil qaror qabul qilish va tanlov erkinligini qay darajada saqlab qolayotgani haqida jiddiy savollarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, shaxs avtonomiyasining mohiyati, chegaralari va uni saqlab qolish mexanizmlari haqida chuqur ijtimoiy-falsafiy tahlil o'tkazishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, sun'iy intellekt davrida inson avtonomiyasining transformatsiyasi masalasi hali yetarlicha ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganilmagan. Zamonaviy falsafa fanida bu muammoga turlicha yondashuvlar mavjud: bir tomondan, texnologik determinizm tarafdorlari sun'iy intellektni insoniy avtonomiyaga tahdid sifatida baholasa, ikkinchi tomondan, texnooptimistlar uni inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida talqin qiladilar. Ushbu ikki qutb o'rtasida muvozanatli, tanqidiy-falsafiy tahlilga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellektning rivojlanishi sharoitida shaxs avtonomiyasi tushunchasining mazmuni, tarkibiy elementlari va transformatsiya jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilishni ko'zda tutadi. Bunda avtonomiyaning an'anaviy falsafiy talqinlaridan zamonaviy raqamli muhitdagi yangi shakllariga o'tish dinamikasi, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan ijtimoiy, axloqiy va antropologik muammolar alohida e'tiborga olinadi. Tadqiqot davomida avtonomiya va texnologik vositachilik o'rtasidagi dialektik munosabat, inson erkinligining yangi shakllari va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri masalalari ochib beriladi

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sun'iy intellektning rivojlanishi va amaliyotga joriy etilishi uning inson avtonomiyasiga ta'siri bilan bog'liq yangi savollarni yuzaga keltirmoqda. Inson avtonomiyasi ko'plab jamiyatlarning axloqiy, huquqiy va siyosiy amaliyotlarida chuqur ildiz otgan asosiy qadriyatlardan biridir [1;1–21-b.]. Sun'iy intellekt tizimlari rozilik olish, ma'lumotlarni yig'ish, interfeyslarni loyihalash va institutsional boshqaruv kabi turli ijtimoiy-texnik sohalarda inson avtonomiyasini kuchaytirishi yoki, aksincha, cheklashi mumkin [2;1–17-b.].

Sun'iy intellekt tizimlari algoritmik paternalizm orqali inson avtonomiyasini o'zgartirishi mumkin. Bunda sun'iy intellektning mustaqil faoliyat yuritayotgandek ko'rinishi va unga beriladigan yuqori darajadagi ishonch hamda vakolat insonning o'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyatini ilgari kuzatilmagan shakllarda zaiflashtirishi mumkin [3;22–31-b.]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tizimlari inson faoliyatini shunchaki qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lib qolmay, balki kognitiv faoliyat, harakat va mas'uliyat amalga oshiriladigan shart-sharoitlarni qayta tashkil etuvchi strukturaviy kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, sun'iy intellekt insonning agentligini birgalikda shakllantiruvchi subyektga aylanadi va bu jarayon har doim ham insonning o'zi uchun ochiq va shaffof bo'lavermaydi [4;14–27-b.].

Sun'iy intellekt axborot bilan bog'liq murakkablikni kamaytiradi. U turli vazifalarni tez va soddalashtirilgan tarzda bajarish orqali axborot bilan ishlashdagi qiyinchiliklarni kamaytiradi. Biroq bu jarayon insonning chuqur anglash, mulohaza yuritish va mustaqil xulosa chiqarishi uchun zarur bo'lgan refleksiv jarayonlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin [5;5–18-b.]. Sun'iy intellekt asosidagi qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida xatoliklarning ishonchli ko'rsatkichlari mavjud bo'lmasa, shaxs avtonomiyasi zaiflashishi mumkin. Bunday ta'sir nafaqat qaror qabul qilishning ayni paytdagi jarayonida, balki uzoq muddat davomida muayyan sohadagi mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining pasayishiga ham olib kelishi mumkin [6;28–41-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi kontekstida shaxs avtonomiyasi tushunchasida yuz berayotgan transformatsion jarayonlarni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, shaxs avtonomiyasi hodisasi an'anaviy tarzda tor ma'noda, ya'ni, faqat individual tanlov va iroda erkinligi doirasida emas, balki kengroq konseptual maydonda, xususan, ijtimoiy munosabatlar tizimi, raqamli texnologiyalar, algoritmik boshqaruv mexanizmlari hamda zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhit bilan dialektik o'zaro ta'sir jarayonida o'rganiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv doirasida shaxs avtonomiyasi yakka hodisa sifatida emas, balki sun'iy intellekt, raqamli muhit, ijtimoiy institutlar va insonlararo munosabatlar bilan uzviy dialektik aloqadorlikda namoyon bo'luvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalarining qaror qabul qilish, axborot olish, kommunikatsiya va kundalik faoliyat jarayonlariga bosqichma-bosqich kirib borishi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon shaxsning mustaqil fikrlash va tanlov erkinligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimi sifatida ilmiy tahlil predmetiga aylantiriladi. Shuningdek, tadqiqotda biz dialektik metoddan ham muhim metodologik vosita sifatida foydalandik. Mazkur metod tadqiqotning asosiy muammosi sifatida qaraladigan sun'iy intellekt va shaxs avtonomiyasi o'rtasidagi munosabatning ziddiyatli xususiyatlarini tizimli o'rganishga xizmat qiladi. Bir tomondan, sun'iy intellekt insonning bilim olish, axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, sun'iy intellekt va texnologik vositalarning cheksiz imkoniyatlariga ortiqcha tayanish shaxsning mustaqil fikrlash va tanlash qobiliyatini cheklashiga sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, avtonomiyaning kuchayishi va zaiflashishi jarayonlari o'zaro bog'liq dialektik munosabatdagi hodisalar sifatida tahlil qilinadi.

Biz tadqiqotimz jarayonida qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanish orqali an'anaviy shaxs avtonomiyasi tushunchasi bilan sun'iy intellekt shakllantirayotgan yangi avtonomiya modelini o'zaro taqqosladik. Bunda insonning mustaqil qaror qabul qilishi, tanlov erkinligi, mas'uliyati, tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy identifikatsiyasi kabi mezonlar asosiy tahlil kategoriyalari sifatida olinadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ushbu sohada shakllangan zamonaviy falsafiy konsepsiyalar tashkil etadi. Bunda sun'iy intellekt shaxs avtonomiyasiga faqat texnologik omil sifatida emas, balki insonning qaror qabul qilish, o'z-o'zini anglash hamda jamiyatdagi o'rnini belgilash jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi yangi ijtimoiy muhit sifatida talqin qilinadi. Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmuyi esa sun'iy intellekt davrida shaxs avtonomiyasining mazmun-mohiyati, chegaralari va ijtimoiy funksiyalarida ro'y berayotgan transformatsion jarayonlarni yaxlit va tizimli tarzda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va shaxs avtonomiyasi o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emas, balki dialektik xususiyat kasb etishini ko'rsatadi. Bir tomondan, sun'iy intellekt tizimlari inson kognitiv faoliyatining muhim jihatlarini, xususan, qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi. Ikkinchi tomondan, texnologik tizimlarga ortiqcha tayanish shaxsning mustaqil fikrlash va tanlov qilish kompetensiyalarining bosqichma-bosqich zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu tarzda, sun'iy intellekt shaxs avtonomiyasiga bir vaqtning o'zida ikki tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi ham kengaytiruvchi, ham cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Natijada shaxs avtonomiyasi fenomeni sun'iy intellekt texnologiyalari ta'siri natijasida bir nechta yo'nalishda transformatsiyaga uchrayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, qaror qabul qilish jarayonlarida sun'iy intellekt tavsiya tizimlarining kengayib borishi shaxsning tanlov erkinligini ikki tomonlama tarzda o'zgartirmoqda: bir tomondan, axborotni tezkor va samarali qayta ishlash imkoniyati kengaymoqda, ikkinchi tomondan, algoritmik tavsiyalarga bog'liqlik natijasida mustaqil fikrlash jarayoni sustlashish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Ikkinchidan, raqamli muhitda shaxslararo muloqot xususiyatlarining o‘zgarishi tahlil qilinganda, inson qaror qabul qilish jarayonida tobora ko‘proq algoritmik tizimlarga murojaat qilayotgani aniqlandi. Bu, o‘z navbatida, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonlari bilan bog‘liq murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Natijada avtonom shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirida yangi shakldagi bog‘liqlik munosabatlari yuzaga kelmoqda.

Umumlashtirib aytganda, olib borilgan tahlillar va erishilgan natijalar shaxs avtonomiyasining mustaqil, izolatsiyalangan hodisa emas, balki texnologik, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida dinamik tarzda transformatsiyalanuvchi murakkab tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, sun’iy intellekt texnologiyalari va shaxs avtonomiyasi o‘rtasidagi munosabat murakkab, ko‘p tarmoqli xarakterga ega. Shuningdek, sun’iy intellekt shaxs avtonomiyasiga chiziqli tarzda emas, balki dialektik ta’sir ko‘rsatadi va bu ta’sir bir vaqtning o‘zida ham kengaytiruvchi ham cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Buning natijasi esa, ko‘p jihatdan, sun’iy intellekt tizimlarining ob’ektiv va shaffofligi, foydalanuvchining raqamli savodxonligi va tanqidiy tafakkur darajasi hamda ulardan foydalanish maqsadi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, shaxs avtonomiyasi mustaqilligini ta’minlash va himoya qilish maqsadida foydalanuvchilarda, eng avvalo, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sun’iy intellekt tizimlaridan olingan ma’lumotlarni tahlil qila olish, ulardan foydalanishning muvozanatli modelini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ushbu yo‘nalishdagi olib borilayotgan keyingi tadqiqotlar sun’iy intellekt va unga tobora bog‘lanib borayotgan shaxs avtonomiyasi o‘rtasidagi munosabatni empirik jihatdan chuqurroq o‘rganishga, shuningdek, texnologik tizimlarning ushbu jarayonga ta’sirini tartibga soluvchi amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Prunkl C. (2024). Human Autonomy at Risk? An Analysis of the Challenges from AI. Minds and Machines, 34, p. 1–21. https://doi.org/10.1007/s11023-024-09665-1

[2]. Laitinen A., & Sahlgren O. (2021). AI systems and respect for human autonomy. Frontiers in Artificial Intelligence, 4, 705164. https://doi.org/10.3389/frai.2021.705164

[3]. Hofmann B. (2026). Artificial autonomy and algorithmic paternalism: AI shaping human autonomy and decision-making. Frontiers in Artificial Intelligence, 9. https://doi.org/10.3389/frai.2026.18602395

[4]. Alanazi B., & Alsaleh A. (2026). AI-Enabled Innovation in Education and Work: Philosophical reflections on digital transformation and human adaptation. Philosophies, 11(3), 73. https://doi.org/10.3390/ philosophies 11030073

[5]. Mohammadnejad S., Raiesifar A., Bazmi S., & Ghonodi F. (2026). Ethical challenges to patient autonomy in the era of artificial intelligence: a systematic review. BMC Medical Informatics and Decision Making, 26. https://doi.org/10.1186/s12911-026-03614-x 4

[6]. Buijsman S., Carter S.E., &Bermúdez J. (2025). Autonomy by Design: Preserving human autonomy in AI Decision-Support. Philosophy & Technology, 38(3). https://doi.org/10.1007/s13347-025-00932-2